

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARINING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Tojiboyeva Shohista Komiljonovna

Qo'qon DPI tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7848087>

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining chet tilda nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish muammolari bayon etilgan bo'lib bugungi kunda chet tillarini jumladan ingliz tilini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitishning didaktik, pedagogik hususiyatlari haqida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalar, ilmiy-tadqiqot, xorijiy tajriba, pedagogik mahorat, nutqiy ko'nikma, aqliy rivojlanish, maktab, kommunikativ faoliyat.

KIRISH

Jahonda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasidan kelib chiqib, xorijiy tillarni Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida va kommunikativ maqsadlarda o'qitilishi nutq mavzulari, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar hamda til materialidan iborat chet til o'qitish mazmunini modernizatsiyalashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish, o'qituvchining kasbiy kompetentligini oshirishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Umumiy o'rta ta'limda xorijiy tillarni o'qitishda o'quvchilarning til o'rganishga ishtiyoqi, layoqati va munosabati kabi individual jihatlarini, tafakkur, xotira, diqqat kabi yoshga oid psixologik xususiyatlarini, til tajribasi va til ta'lim sharoitini inobatga olib sifat va samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kembrij, Oksford, Aston va York universitetlarida chet til bo'yicha A1 daraja uchun ta'lim mazmuni, talablari va vositalarini kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, til o'rganish usul va strategiyalarini hisobga olib takomillashtirish zamonaviy tillar yevropa markazi, Varshava universiteti, Gyote universitetida Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chet tilini madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida o'qitish, Oslo Akershus va Joensu universitetlarida Umumiy o'rta ta'limda ayrim fanlarni ingliz tilida o'qitish (CLIL), Inchon, Beyjing, Leshan, Linton, Xankuang universitetlarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ingliz tilini tabiiy nutqqa taxminiy yaqinlashish va og'ziki nutqning ilgariylashi tamoyillari asosida nutq namunalari va muloqot modellarini o'qitish, Moskva davlat pedagogika universiteti, Nijegorod davlat pedagogika universitetida Umumiy o'rta ta'limda xorijiy tillarni shaxs va uning faoliyatiga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'qitish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligi alohida ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan Umumiy o'rta ta'limda ingliz tilini kommunikativ yondashuv asosida o'qitish, ingliz tilini ta'lim maqsadi va muloqot vositasi sifatida o'rgatish zaruriyati izohlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni chet tillarini o'rganishlari uchun har jihatdan bilimli va mustaqil fikrli kishilar qilib tarbiyalash yuzasidan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. «Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib borish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish lozimligi» kabi vazifalar belgilangan. Ya'ni chet tilini kommunikativ faoliyat ko'rsatish, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo'ljallangan integrativ yondashuv asosida o'qitish

metodikasini takomillashtirish; xorijiy tajribalarni o'rganish; Umumiy o'rta ta'limda ingliz tili o'qitishga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi «Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitish sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 610-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875-sonli Qarorlari va mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqotimiz muayyan darajada xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umumiy o'rta ta'limda chet til o'qitish masalasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ta'lim o'zbek tilida tashkil etiladigan umumiy o'rta ta'limda ingliz tili o'qitishda kommunikativ yondashuv metodikasi bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishini taqazo etiladi.

Maqolada kommunikativ yondashuv asosida maktab o'quvchilariga ingliz til o'qitish metodikasini takomillashtirish maqsadida quyidagi vazifalar bajarildi:

-Umumiy o'rta ta'limda chet til o'qitish konsepsiyalarini, didaktik, psixolingvistik, metodik hamda pedagogik tamoyillarini, chet til o'zlashtirish va chet til o'rganish nazariyalarini tahlil qilish;

-ingliz til o'qitish mazmuni (nutq mavzulari, malakalari va til materialini)ni tahlil qilish;

-ingliz tilini A1 darajada o'rgatishda tillararo interferensiya darajasini aniqlab, xatolarning oldini olish, mashg'ulotlarda kommunikatsiya va interaktsiya sodir bo'lishini ta'minlash bo'yicha innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

-ingliz tilini kommunikatsiya va interaktsiya vositasi maqomida o'qitishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o'tkazish va tadqiqot natijalari bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Metodika tamoyillari mohiyatini yoritishda psixologik va lingvistik qonun-qoidalarga suyanib ish ko'rildi va quyidagi psixolingvistik tamoyillar umumlashtirildi:

1. O'quvchilarning chet til o'rganish, o'zlashtirishga motivatsiyasi (ichki turtkisi)ni oshirish.
2. Mashg'ulotlarda o'quvchilarning yoshiga mos jismoniy harakatlarini rag'batlantirish.
3. O'quvchilarni ona tili va o'rganilayotgan chet tilning o'xshash jihatlaridan xabardor etish.
4. O'quvchilarning vositachi til (metatil) tajribalarini rivojlantirish.
5. O'quvchilarni ona tili va o'rganilayotgan chet tilning aloqadorligidan foydalanishga o'rgatish.
6. O'quvchilarni o'rganilayotgan chet til tuzilmasi bilan umumiy tanishtirish.
7. Individual yondashish, ya'ni o'quvchilarning xos xususiyatlari (har qaysi o'quvchining tabiati, nimalarga qodirligi, qiziqishi, kim bilan do'stlashishi, nimalarga salbiy munosabatda bo'lishi)ni inobatga olib psixo-pedagogik tadbirlar olib borish.

XULOSA

Umumiy o'rta ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning pedagogik tamoyillari o'zbek va rus tilidagi ilmiy manbalar dadidaktik tamoyil sifatida mufassal bayon etilgan. Lekin xorijiy adabiyotlarda pedagogik tamoyil alohida tadqiq etiladi.

Biz pedagogik tamoyillarni umumlashtirishda uch tildagi ilmiy manbalardan foydalandik:

1. O'sib kelayotgan avlodni har tomonlama kamolotga yetkazish. Chet til vositasida o'zlashtiriladigan axborot va chet til o'rganish mobaynida olinadigan aqliy va nutqiy ko'nikma hamda malakalar o'quvchilarni tarbiyalaydi.
2. O'quvchilarni o'rganilayotgan tildan foydalanishga rag'batlantirish.
3. O'quvchilarning individual xususiyatlarini e'tiborga olish.
4. O'quvchilarni atrofda qilargalarga nisbatan bag'rikenglik va turli qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash.
5. Darslarda bilimlarning mustaqil fahmlab o'rganilishi uchun optimal vaziyat yaratish.
6. O'quvchilarda o'zlashtirish ko'rsatkichlarini mustaqil va o'zaro aniqlab borish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.
7. O'quvchilarga o'z bilimlarini o'rganilayotgan tilda namoyon qilish imkoniyatini yaratish.
8. Darslarni kompetensiyalar egallanishiga mo'ljallangan integrativ yondashuv asosida tashkil etish.

References:

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2012. – B. 82-83.
2. Горлова Н.А. Личностно-деятельностный метод обучения иностранным языкам дошкольников, младших школьников и подростков. Теоретические основы. – М.: МГПУ, 2010. – С. 182-190
3. Edelenbos P., Johnstone R., Kubenak A. The main pedagogical principles underlying the teaching of languages to very young learners. Final Report of the EAC 89/04, Lot 1 study. 2006. – P. 135.
4. Driscoll P., Frost D. The teaching of modern foreign languages in the primary schools. – L.: & N.Y.: Routledge, 2005. – R. 17-18.
5. Williams M., Burden R. L. Psychology for language Teachers. A social constructivist approach. – L.: Cambridge University Press, 2010. – P. 40.
6. Pavesi M., et.al. Teaching through a foreign language: A guide for teachers and schools to using foreign languages in content teaching (CLIL). – Rome. Ministry of Education of Italy, 2001. – P. 32.